

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 234 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,  
**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society  
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation  
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute  
**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE  
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute  
**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction  
**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey  
**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
<b>C.C. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
<b>Bohidova Mehri Xasanovna</b>	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
<b>Buranova Lola Vahobovna</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
<b>Umida Oldashewa</b>	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
<b>Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich</b>	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
<b>Ismoilov Sherzod Dilshodovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
<b>Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li</b>	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
<b>Sharipov Narzullo G'ułomovich</b>	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
<b>Shadieva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
<b>Jumanazarova Z.K.</b>	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
<b>Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich</b>	
Oliyohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
<b>Adizov Sanjar Rashidovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
<b>Касимова Зилола Гуламилдиновна</b>	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish .....	182
<b>Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li</b>	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане .....	186
<b>Шахзод Сайдуллаев</b>	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish .....	192
<b>Ahmedov Komron Muhammadiyevich</b>	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	196
<b>Quyjanov Xurshid Abdullayevich</b>	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari .....	200
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati .....	206
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства .....	214
<b>Нурутдинова Зухра Алишеровна</b>	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati .....	220
<b>Madaminova Sanobar Askarovna</b>	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari .....	226
<b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</b>	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
<b>Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi</b>	



# HUDUDNING IQTISODIY O'SISHINI "YASHIL" IQTISODIYOT ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li**

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va  
ekonometrika kafedrasи tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada "yashil" iqtisodiyot tushunchasining kelib chiqishi, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning dolzarbliji va zarurati hamda uni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Yashil" iqtisodiyot, "yashillashtirish", barqaror rivojlanish.

**Abstract:** This article describes the origin of the concept of "green" economy, the relevance and necessity of the transition to a "green" economy, and practical suggestions for its development.

**Key words:** "Green" economy, "greening", sustainable development.

**Аннотация:** В данной статье описывается зарождение понятия "зеленая" экономика, актуальность и необходимость перехода к "зеленой" экономике, а также практические предложения по ее развитию.

**Ключевые слова:** "Зеленая" экономика, "озеленение", устойчивое развитие.

## KIRISH

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi atrof-muhit iqtisodiyoti va ekoliya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989-yil Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan "Yashil iqtisodiyotni rivojlanirish rejisi", deb nomlangan hisobotda foydalanilgan.

"Yashil" iqtisodiyot atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda ko'proq amaliy xususiyatga ega. "Yashil" iqtisodiyot ilm-fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, aniq iqtisodiy faoliyat sohalari (energetika, innovatsia, qishloq xo'jaligi va b.)ga aloqador bo'lib, u nazariy jihatdan xo'jalik yuritish tizimini "yashillashtirish"ning umumiyligi strategiyasini ishlab chiqish va ustuvor yo'nalishlarini belgilab berish bilan shug'ullanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikka asoslangan iqtisodiy rivojlanish mavzusi ilmiy doiralar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda qator tadqiqotlar va nazariy ishlamalar mavjud bo'lib, ular hududlarning iqtisodiy o'sishini ekologik jihatdan barqaror tarzda shakllantirishga qaratilgan.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida shakllantirilganda, bu, avvalo, resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, H. Daly (1990) tomonidan taqdim etilgan barqaror rivojlanish modeli hududiy iqtisodiyotni barqaror va ekologik muvozanatlari rivojlanirishni tavsiya etadi. Ushbu model bo'yicha, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ekologik kapital, inson kapitali va texnologik yangiliklar ko'rib chiqiladi.

Yashil texnologiyalar va barqaror energiya manbalaridan foydalanish ham hududlarning yashil iqtisodiyot asosidagi rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bir qancha tadqiqotlarda (masalan, P.Pearce va K.Turner, 1990) yashil texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishdagi ahamiyati ta'kidlangan.




## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruqlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" iqtisodiyotni nazariy asoslashdan keyin uning ahamiyatini iqtisodiy subyektlar o'rtasida ommalashtrish zarurati paydo bo'ladi. Ushbu darajada "yashil" iqtisodiyotning bosh vazifasi jamiyatga ekologik toza ishlab chiqarishning zarurligi va ahamiyati to'g'risida dunyoqarashni uyg'otish hisoblanadi(1-rasm).



1-rasm. "Yashil" iqtisodiyotni boshqarish darajalari<sup>1</sup>.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish nazariy hamda g'oyaviy jihatdan asoslangandan keyin uning huquqiy asoslarini shakllantirish va sohaga oid tegishli qonunchilikni ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunchilik iqtisodiyotni "yashillashtirish"ga ko'maklashish bilan bir vaqtda barcha xo'jalik subyektlari manfaatlariga mos kelishi zarur. Shuningdek, iqtisodiy darajada "yashil" iqtisodiyotni boshqarish jarayonlarining natijalariga baho beriladi<sup>2</sup>.

"Yashil" iqtisodiyot atamasiga BMTning atrof-muhit dasturi doirasida shunday ta'rif beriladi: "Yashil" iqtisodiyot ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan infratuzulmani yaratish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanish amaliyotidir<sup>3</sup>. BMTning atrof-muhit dasturida "yashil" iqtisodiyot sohasida 3 ta asosiy yo'nalishda ish olib borilayotganligi qayd etilgan. Ular:

- mintaqaviy, submintaqaviy va milliy ko'lamda barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun makroiqtisodiy yondashuvlarni targ'ib qilish;

- yashil moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishga asosiy e'tiborni qaratgan holda "yashil iqtisodiyot" yo'nalishlarini namoyish qilish;

- mamlakatlarni yashil iqtisodiyotga o'tishini qo'llab-quvvatlash.

Yuqoridaq fikrlarni umumlashtirib xulosa qilsak, "yashil" iqtisodiyot atrof-muhitga kam zarar yetkazish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishish tamoyilidir.

Hozirgi kunda iqtisodiy o'sishni yuqori darajada ta'minlash hamda aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida yalpi ichki mahsulot hajmi yildan yilga oshib borayotganini kuzatish mumkin, bu, o'z navbatida, tabiiy resurslardan keng foydalanishni hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirning ortib borishini ham anglatadi. Bunday sharoitda "yashil" iqtisodiyotning ahamiyati hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning zarurligi va dolzarbliyi yuqori o'ringa chiqadi. Uning dolzarbliji va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi;

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirish zarurligi;

- uglevodorod xomashyosi va uning oxirgi mahsulot qiymatidagi ulushiga bog'liqligini qisqartirish orqali iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;

- past uglevodorodga o'tish jarayonida uglevodorodga bog'liqlikni qisqartirish<sup>4</sup>;

Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotga o'tish dolzarbliyi yuqoridaq omillar bilangina cheklanib qolmaydi, iqtisodiyot rivojlangan sari boshqa omillar ham paydo bo'la boshlaydi(2-rasm).

1 Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 12 b.

2 Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 12 b.

3 "UNO environment program" internet sayti kutubxonasi.

4 Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 21 b.



- 1 • Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish
- 2 • Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish
- 3 • Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish
- 4 • "Sof", "barqaror" yoki "yashil" transportni rivojlantirish
- 5 • Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish
- 6 • Uy-joy communal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish
- 7 • Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruva samaradorligini oshirish
- 8 • "Yashil" texnologiyalarni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish

2- rasm. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning yo'nalishlari.

Iqtisodiy adabiyotlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning 8 yo'nalishi ajratiladi. Bu yo'nalishlar iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarida tejamkorlik hamda tabiatga deyarli zarar yetkazmaydigan yoki juda kam zarar yetkazadigan faoliyatlarni qamrab oladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanish tushunchasini to'liq ifodalay olmaydi, balki "yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanish tarkibiga kirib, unga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi, chunki barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni uyg'un holatda, ya'ni o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi.

Hududlarni "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirish ko'p jihatdan barqaror energiya manbalariga bog'liq bo'ladi. Shuning bilan birga, energiyaga bo'lgan yuqori talabni qondirishda qayta tiklanadigan energiya manbalarini ulushini doimiy ravishda oshirib borish "yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillariga har jihatdan mos keladi. Yuqoridaq 2-rasmdan ko'rinish turibdiki, tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman, tiklanadigan energiya manbalariga e'tibor qaratish ko'p jihatdan quyidagi muhim omillarga bog'liq:

- tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash hisobiga narx raqobating o'sishi;

- ushbu sohaning rivojlanishi uchun ijobiyligi ta'sir etuvchi siyosiy tashabbuslarning ommalashuvi;

- sohani moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitining yaratilishi;

- energetik va ekologik muammolarni hal qilish masalasi;

- rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida energiyaga bo'lgan talabning ortib borishi<sup>5</sup>;

Shuning bilan birga, iqtisodiyot rivojlangan sari boshqa omillar yuzaga chiqish ehtimoli borligini ham unutmashlik kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida<sup>6</sup>gi PF-158-son<sup>6</sup> Farmoniga ko'ra qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilgacha

<sup>5</sup> Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 100 b.

<sup>6</sup> lex.uz>docs/6600413



erishiladigan maqsadlar va ularning samaradorlik ko'rsatichlari batafsil bayon qilingan. Strategiyaning ikkinchi bob 51-maqсадida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning assosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, quydagilar maqsad qilingan:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MWh hamda jami iste'moldagi ulushini 40% ga yetkazish;
- sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish;
- 3 GVt quvvatli 3 ta IESlarni modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish;
- ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy qilish;
- shaharlardagi jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish;
- iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish;
- issiqxona gazlarining YIM birligiga nisbatan 2010-yildagi darajasidan 30% ga qisqartirish<sup>7</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning iqtisodiy o'sishini yashil iqtisodiyot asosida shakllantirish masalasi global miqyosda dolzab va muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni birgalikda ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va uglerod izlарini kamaytirish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish kelajak avlodlarga yanada ekologik toza va iqtisodiy barqaror muhit yaratish imkonini beradi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim o'r'in tutadi.

### Foydalananlgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sun Farmoni. lex.uz>docs/6600413
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-soni qarori. lex.uz>docs/-4539502
3. Boltaboev M., Muminova E. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. FarPI. 2023.
4. "Yashil" iqtisodiyot loyihasi: Devid Pirs, Anil Markandya va Edvard B. Barbier. Earthscan, London, Buyuk Britaniya, 1989. 192-bet.
5. Molly Scott Cato. Green Economics. An introduction to theory, policy and practice. London. 2009.
6. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. "Yashil" iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020.
7. "UNO environment program" internet sayti kutubxonasi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sun Farmoni, 51-maqсад. lex.uz>docs/6600413

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

